

**O‘YIN FAOLIYATINING BOLA SHAXSINING  
SHAKLLANISHIDAGI TA’SIRI****SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Pedagogika va psixologiya kafedrası**o‘qituvchi [u.shomurotov@dtpi.uz](mailto:u.shomurotov@dtpi.uz) +998915107420***LAPASOVA SEVINCH ELMUROD QIZI****JUMAYEVA XOLISXON OTABEK QIZI***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Matematika va informatika ta’lim yo’nalishi**11-MI guruh talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘yinning bola xayotidagi ahamiyati, o‘yinning bolaga psixik, fiziologik va ma’naviy ozuqa berishi, o‘yin orqali bola hayotga moslashishi dunyoqarashining o‘sishi, muloqoting boyishi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirib o‘tilgan

**Kalit so‘z:** muhit, o‘yin, obraz, psixika, agressiya muammo, muloqot, mehnat faoliyati

**Abstract:** In this article, the importance of the game in the life of the child, the mental, physiological and spiritual nourishment of the game to the child, the growth of the worldview of the child's adaptation to life through the game, and the enrichment of communication are given.

**Key words:** environment, game, image, psyche, aggression, problem, communication, labor activity

Shaxsning rivojlanishida o‘yin muhim rol o‘ynaydi. Kattalar rolini o‘z zimmasiga olayotib, ular faoliyatini va o‘zaro munosabatlarini tasvirlayotib, bola ularga xos bo‘lgan qoida va axloq motivlari bilan tanishadi. Ulardan o‘zaro muloqot paytida foydalanadilar. Masalan, ustaxonadagi ishchi rolini bajarayotib, bola o‘z ishiga javobgarlik bilan yondashadi, shifokor rolini bajarayotib kasallarga jonkuyarlik va e’tiborlilik munosabatida bo‘ladi va h.k..

Kattalar va tengdoshlarning ta’siri asosan faoliyatda amalga oshiriladi. Bolalarning faoliyatini tashkillashtirib kattalar o‘yin sujeti, rasmlar to‘g‘risida maslahat va ko‘rsatmalar beradilar. Bolalarni tasvirlangan odamlarning o‘zaro munosabati va ishi bilan tanishtiradilar, bolalarning ishi va harakatlariga ham ma’lum talab qo‘yadilar, baholaydilar, faoliyat paytida vujudga keladigan qiyinchilik va nizolarni hal qilishga yordam beradilar. O‘zaro birgalikdagi faoliyatda bolalar

birlashadilar, bolalar jamoasi asosi bo'lgan va uning a'zolarida shaxsni rivojlanishiga yordam beradigan o'zaro aloqaga kirishadilar.

O'yin bolalarni o'ziga jalb qiladi, ularni tasvirlanayotgan personajlar hissiy holatini — mayl, kasallarga, bolalarga hamdardlikni haqiqatdan ham qilishga majbur qiladi. O'yin davomida qo'g'irchoqlarga va o'yinchoq hayvonlarga bola muloyimlik bilan munosabatda bo'ladi. O'yinga qiziqish, rolni yaxshi bajarish istagi bolalarda shunchalar yuqoriki, bunday sharoitlarda o'zlari uchun murakkab, yoqimsiz harakatlarni bajaradilar, yoki boshqa xohishlarni qoniqtirishdan o'zlarini tiyadilar. Maktab o'quvchilarini tasvirlayotib, maktabgacha yoshdagi bolalar uzoq vaqt va hafসা bilan zerikarli, bir xil ish bilan shug'ullanadilar, ya'ni bir xil harflarni bir necha marta ko'chirish ular uchun qiziqarli emas. Sotuvchi rolini o'ynayotib, besh yoshli qizaloq o'z tasarrufidagi pechenyelarni yemaydi, chunki bu xaridorlarga tegishlidir, sotuvchi manfaatlariga zid.

Lekin o'yin davomida erishilgan yutuqlar bolalar tomonidan boshqa sharoitlarga, kundalik xulq-atvorlariga bevosita ko'chirilishi mumkin deb o'ylash noto'g'ri. Shifokor rolida bemor qizga g'amxo'rlik qilayotgan bola, o'yin tugagandan so'ng shu qizdan, ko'z yoshlariga ahamiyat bermay o'yinchoqni tortib olayotganini ko'pincha ko'rish mumkin.

O'z zimmasiga rol olish tufayli bolalar ma'lum xulq-atvor motivlari, kattalar harakati, hissiyotlari bilan tanishadilar. O'yin bolalarni faqat mazmuni, tavsirlanadigan rollari tomoni bilan tarbiyalamaydi. O'yin xususida bo'lgan real munosabatlar paytida, o'yin mazmunini muhokama qilishda, rollarni, o'yin materiallarini bo'lishishda bolalar o'z o'rtog'ining qiziqishlarini inobatga olishni, unga hamdard bo'lishni, yon berishni, umumiy ishga o'z hissasini qo'shishni o'rganadilar. Bolalar orasida o'yinni kim tashkillashtirishi yoki o'tkazishi xususida nizo chiqadi. Bunday nizo sababi, odatda, o'z reja va harakatlarini muvofiqlashtira olmaslikning natijasidir. Bunday holda yordamga tarbiyachi keladi.

O'yin qancha murakkab bo'lsa, qatnashchilar soni ko'p bo'lsa, mazmuni ular orasida birdamlikni, bog'liqlikni talab qilsa, tarbiyachini bolalar xulqiga, o'zaro munosabatlariga, ularning harakatlarini muvofiqlashtirishga bo'lgan talabi ham shuncha katta bo'ladi. Shuning uchun o'yinning murakkabligi bilan maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining rivojlanishidagi ahamiyati ham oshadi.

Aksariyat o'yinlarda turli xil bolalar tomonidan ijro etiladigan rollar bir xil bo'lmaydi. Asosiy rollar (kapitan, shifokor, tarbiyachi ayol) va ikkinchi darajali (matros va yo'lovchilar, hamshiralar, sanitarlar va bemorlar, enaga va bolalar) rollar bo'ladi.

Asosiy rollar ko'proq e'tiborga ega bo'lganligi uchun, ular bolalarni o'ziga ko'proq jalb qiladi. Bola yolg'iz o'ynayotganda va boshqa personajlarni, qo'g'irchoqlarni aks ettirayotganda asosiy rol albatta o'ziga oladi. O'yinda bir necha

bola qatnashayotganda esa, tabiiyki, ularning bari asosiy rolga da'vo qila olmaydilar. Odatda, bolalar bog'cha guruhlaridanoq o'yin o'ylab topadigan va uni tashkillashtiradigan, rol bo'lishni boshqaradigan, bolalarga kerakli harakatlarda yo'l ko'rsatadigan bolalar ajralib turadilar. Ular odatda asosiy rolni ijro etadilar, yoki uni olishni xohlagan boshqa bolaga beradilar.

Bu o'yin bilan bog'liq bo'lgan real munosabatlar qanday ruhda kechishi, bunday «yo'l boshchilarni» axloq xususiyatlariga, ular qanday yo'llar bilan o'z talablari bajarilishiga erishishlariga yetarli darajada bog'liq bo'ladi. Bunday vaziyatlarda alohida e'tibor, mehr qozongan, tengdoshlari bilan kelisha oladigan, ularning istaklarini hisobga oladigan, tushunmovchiliklarni bartaraf etadigan bolalar bo'lishi mumkin. Boshqa hollarda esa «yo'l boshchi» sifatida buyruq berishga intiladigan, boshqalarni bo'ysundiradigan, buyruq beradigan, jismoniy ta'sir o'tkazadigan bolalar paydo bo'ladi.

O'yin orqali bolalar orasida bunday munosabatlarni tashkillashtirish tarbiyachiga bog'liq. Ular bola shaxsining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zarur paytda tarbiyachi bolalarga o'yin mazmunida yordam beradi, rollar taqsimlanishini tekshirib boradi (ba'zida aralashish kerak bo'ladi), bolalar kelishib harakat qilishlarini kuzatib boradi. Bolalar asta-sekin oddiy qatnashuvchilardan o'zaro munosabatlar talab qiladigan, bir-birlari bilan ko'proq maslahatlashishga majburlaydigan o'yinlarga o'tishi lozim. O'yin «yo'l boshchilari»ga alohida e'tibor berish zarur. Boshqa bolalar ularga taqlid qilganliklari sababli ularning harakatlarini boshqarish kerak.

Bolaning axloq motivlari butun bolalik davri davomida jiddiy o'zgaradi. Maktabgacha kichik yoshdagi bola, his-tuyg'ulari va istaklari ta'sirida harakat qiladi. Ular turli xil sabablar tufayli paydo bo'ladi, bola o'z harakatlari haqida, uni u yoki bu ishni qilishga nima majbur qilganligi haqida o'ziga hisob bermaydi. Maktabgacha katta yoshdagi bola harakatlarni ko'proq anglagan holda amalga oshiradi. Ko'p hollarda u nega boshqacha emas aynan shunday ish qilganini zehni bilan tushuntirib beroladi. Uch yoshli bola tovuqlarga donni ularning hamma yoqdan yugurib kelib bir yerda to'planishlarini va cho'qilab yeyishlarini ko'rish uchun bersa, olti yoshli bola buni onasiga uy ishlarida yordam bo'lsin deb qiladi.

Bularga asoslanib, butun maktabgacha yoshga xos bo'lgan va bola xulqiga katta ta'sir ko'rsatuvchi motivlarni bir necha turlarga ajratish mumkin. Bu birinchi navbatda bolalarning kattalar dunyosiga qiziqishi, ularni kattalardek harakatlarga intilishi bilan bog'liq. Bolani katta yoshli odamga o'xshash xohishi mazmunli- rolli o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Bunday xohish ko'pincha bolani kundalik hayotda u yoki bu talabni bajarishiga erishish quroli sifatida foydalaniladi. «Sen katta bolasan, kattalar o'zi ki-yinadi» deyish, bolani mustaqil harakat qilishga undaydi. «Kattalar yig'lamaydi» degan gap bola ko'z yoshini tutishi uchun kuchli turtki bo'ladi.

Bolalar xulqida doim namoyon bo‘ladigan motivlarning yana bir guruhi bu o‘yin, o‘yin jarayonining o‘ziga bo‘lgan qiziqish bilan bog‘liq motivlardir. Bu motivlar o‘yin faoliyatini egallash mobaynida yuzaga keladi va kattalardek harakat qilish ishtiyoqi bilan chatishib ketadi. O‘yin faoliyatidan chetga chiqqan holda ular bolani butun axloqini yo‘lga soladi va maktabgacha yosh davrining qaytarilmas o‘ziga xosligini yuzaga keltiradi. Har qanday ishni bola o‘yinga aylantirishi mumkin. Kattalar bola jiddiy mehnat bilan band va qunt bilan biron nimani o‘rganayapti deb o‘ylagan paytda, bola aslida o‘zi xayolida vaziyat yaratib o‘ynayotgan bo‘ladi. Masalan, psixologik tadqiqot vaqtida bolalarga to‘rt predmet tasviridan (odam, sher, ot va arava) «ortiqchasini» ajratish so‘raldi. Bolalar sherda to‘xtadilar va o‘z tanlovlarini shunday izohladilar: «Amaki otni aravaga qo‘shadi va haydab ketadi, sher unga nimaga kerak bo‘ladi? Sher uni o‘zini ham, otni ham yeb qo‘yishi mumkin, uni hayvonot bog‘iga jo‘natish kerak».

Kichik va o‘rta bog‘cha yoshidagi bola xulqida kattalar va boshqa bolalar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatish va ularni saqlab qolish motivlari katta ahamiyatga ega. Bola atrofdagilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishni xohlaydi, bu bola uchun juda zarurdir. Kattalarning erkalatishlariga, ma‘qullashlariga, maqtoviga erishish xohishi bola xulqining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bolalarning ba‘zi harakatlarini shu xohish bilan izohlash mumkin. Kattalarning ijobiy munosabatiga intilish bolani ular fikri va baholari bilan hisoblashishiga, ular tomonidan o‘rnatilgan axloq qoidalarini bajarishga majbur qiladi.

Tengdoshlari bilan aloqa kuchaygani sari bola munosabati doirasi murakkablashib boradi. Uch yoshli bola birinchi marta bolalar bog‘chasiga kelganda, u bir necha oy davomida boshqa bolalarni sezmasligi, xuddi ular yo‘qdek harakat qilishi mumkin. Masalan, o‘tirishni istasa, boshqa bola o‘tirgan stulni tortib olishi mumkin. Lekin vaqt o‘tgan sari holat o‘zgaradi. O‘zaro faoliyatda bo‘lish, bolalar jamoasining shakllanishi, tengdoshlarining ijobiy bahosi va ularni e‘tiboriga erishish bola axloq motivlarini ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

O‘z shaxsiyatini namoyon qilish, izzatlablik motivlari kichik va o‘rta bog‘cha yoshi davrida ko‘rina boshlaydi. Maktabgacha yosh davrida o‘zini boshqa odamlardan ajratish, katta yoshli odamga munosabatda bo‘lgandek muomala qilishni xohlaydi. Kattalarning ishga borishi, bola ko‘z o‘ngida mehnat turlari bilan shug‘ullanishi, o‘zaro munosabatlarga kirishishi, shuningdek, uni, bolani tarbiyalashlari, talablar qo‘yib ularning bajarilishiga erishishlarini kuzatadi, ko‘radi. Bola uni ham boshqalar hurmat qilishlariga va quloq solishlariga, unga e‘tibor berishlariga, uni is- taklarini amalga oshirishlariga da‘vo qila boshlaydi. O‘yin faoliyatida ham bosh rol ni ijro etish talabi o‘z shaxsiyatini namoyon qilishning ko‘rinishidir. Bolalar ko‘pincha bola rolini ijro etish- ni yoqtirmaydilar. Hurmat va obro‘ qozongan katta yoshli odam roli doimo ularni o‘ziga jalb qiladi. Hayotga mos kelishi yoki kelmasligi haqida o‘ylamasdan ham

o‘zlarida jasurlik, kuch va boshqa xislatlarni keragidan bo‘rttirib ko‘rsatadilar. Kuchi haqida berilgan savolga, bola albatta kuchliman, hattoki «filni» ko‘tara olaman, deb javob beradi.

O‘z shaxsiyatini namoyon qilishga intilish ayrim hollarda injiqlik va qaysarlik kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar injiqliklari uch yoshli bolalarning krizis paytida uchraydigan negativizmni juda ham eslatadi. Injiqliklar ko‘pincha bolaga bu davrda noto‘g‘ri yondashuv, yuzaga kelgan salbiy munosabatlarning oqibati hisoblanadi. Lekin injiqlikning psixologik tabiati «krizis» shaklidan farq qiladi. Krizis paytida bola o‘z mustaqilligiga qat‘iy ishonitirmoqchi bo‘ladi. Injiqlik esa barchaning e‘tiborini o‘ziga qaratish, kattalardan «ustun» kelish usulidir. Ko‘pincha zaiflashgan, tashabbuskor bo‘lmagan bolalar injiq bo‘lib qoladilar. Ular o‘z shaxsiyatlarini namoyon qilish istagini boshqa yo‘l bilan, ayniqsa tengdoshlar bilan suhbatda qoniqtira olmaydilar.

Kichik va o‘rta bog‘cha yoshi davrida bolalar faoliyatini murakkablashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan motivlarning yangi turi shakllanadi. Ularga bilim olishga intilishning o‘zaro raqobatchilik motivlari kiradi. Bola uch-to‘rt yoshidayoq atrof-dagilarni savollarga ko‘mib tashlashi mumkin: «Bu nima?»; «Qanday qilib?»; «Nima uchun?» va h.k.. Keyinchalik «Nimaga?» degan savol ko‘p uchraydigan bo‘ladi. Bolalar ko‘pincha faqat savol bermaydilar, balki o‘zlari ham unga javob topishga, kichik tajribalari bilan tushunarsiz narsalarni izohlashga, gohida hattoki «eksperiment» o‘tkazishga ham harakat qiladilar. Barchaga yaxshi ma‘lumki, bolalar o‘yinchoqlarni «ichida nima borligini bilishga» urinib, «ichak-chavog‘ini olib tashlashni» yoqtiradilar.

Bunday dalilni maktabgacha yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan qiziquvchanlik belgisi deb hisoblashadi. Aslida esa bolalarning savollari ularni bilimga qiziqishini, atrof-muhit haqida biron yangi ma‘lumot olishga intilishini bildirmaydi. Kichik va o‘rta yoshdagi bolalar beradigan savollarning aksariyat qismi kattalar e‘tiborini o‘ziga tortishni, ularni suhbatga chorlashni, ular bilan vujudga kelgan kechinmalarni bo‘lishishni maqsad qiladi. Bolalar ko‘p hollarda o‘z savollariga javobni kutmaydilar va oxirigacha eshitmaydilar, katta yoshli odamning gapini bo‘lib, yangi savolga o‘tib ketadilar. Faqatgina unga o‘rgatuvchi, turli xil bilimlarni yetkazuvchi, shu bilan birga savollarga asosli va tushunarli tarzda javob beruvchi kattalar ta‘siri ostida, bola asta-sekinlik bilan atrof-muhitga ko‘proq qiziqishni, yangi narsalar haqida bilishga intilishni boshlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.G. Davletshin, Sh. Do‘stmuhamedova, M. Mavlonov, S. To‘ychiyeva.

*Yosh davrlari va pedagogic psixologiya (o‘quv-metodik qo‘llanma). TDPU, — T.: — 2004.*

2. **Z. Nishanova.** Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent — 1998.
3. **M. Rasulova, D. Abdullayeva, S. Oxunjonova.** Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. — Toshkent. — 2003.
4. **S.X. Jalilova va boshqalar.** Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi. — Toshkent. — 2009.
5. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA O‘YINCHOQLARNING TA’SIRI. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 172-179.
6. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, O. R. Z. S., & QIZI, Q. K. A. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
7. Melikboboyevich, S. U., & Annamuhammad o‘g‘li, S. A. (2024). Psixodiagnostika metodlari va ulardan foydalanish. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 165-171.
8. Melikboboyevich, S. U. (2024). MEASURES TO PREVENT AGGRESSIVE ATTITUDES BY THE TEACHER TO THE STUDENT FOR LATING TO THE LESSONS. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 127-134.
9. Abdukarimovich, T. Y. L., Melikboboyevich, S. U., & Isokovich, U. F. (2024). Xotira haqidagi qarashlar va xotirani rivojlantirish. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 109-117.
10. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). EDUCATOR'S SKILL IN ELIMINATING AGGRESSIVE SITUATIONS OF CHILDREN RAISED IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 611-616.
11. Melikboboyevich, S. U. (2024). CHANGES IN STUDENTS' MENTAL STATUS DURING MASTERING THEORETICAL AND PRACTICAL TRAINING (IN THE EXAMPLE OF AGGRESSION). *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 142-148.
12. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI, 1(2), 93-103.
13. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O‘YIN FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI. BOLA HAYOTIDA O‘YINNING AHAMIYATI. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI, 1(2), 85-92.